



Ekologik Madaniyatni Yuksaltirishda Fuqarolik Jamiyati Institutlarining O‘Rni

Bayeshanov Abdulla Mustafayevich

Guliston davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tabiatni asrash, ekologik barqarorlikni ta’minlashning ahamiyati, shuningdek ekologik madaniyatni rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlarini o‘rni tahlil etilgan. Maqolada ekologik madaniyat ijtimoiy xulq-atvor, mas’uliyatli fuqaro pozitsiyasi sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, mamlakatimizda ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, ekologik nazorat, jamoatchilik nazorati, NTT, OAV, mahalla, ekologik altruizm.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Insoniyatning yillar davomida tabiatga nisbatan shafqatsiz munosabati bugungi global ekologik inqiroz yoqasiga kelib qolishimizga sababchi bo‘ldi. Tabiat zanjirining uzulishi natijasida biologik turlarning yo‘qolib ketishi, iqlimning keskin isishi, tabiiy resurslarning tobora kamayib borishi kuzatilmoqda. Endilikda tabiiy ekologik muammolar milliy chegaralar bilan kifoyalanmay, umumbashariy inqiroz darajasiga yetdi. Shuni qayd etish kerakki, tabiatni shunchaki huquqiy choralar, texnologik yondashuvlar bilan himoya qilib bo‘lmaydi. Asl mohiyat, inqiroz holatining tub ildizlari jamiyatni tabiatga bo‘lgan munosabatida, insonning ekologik madaniyati darajasida yotadi. “Ekologik madaniyat – insonning tabiatni o‘zgartirish va o‘zlashtirishga ongli ijodiy munosabati bo‘lib, tabiiy qadriyatlarni kelajak avlodlarga bekamu-ko‘st qoldirish mas’uliyati va burchini anglash”[1] demakdir. Har bir insonda tabiatga bo‘lgan daxldorlik hissini shakllanishi, o‘zini tabiat bilan uyg‘un holda his eta olishidir. Bu o‘z navbatida jamiyatdan ijtimoiy nazoratni kuchaytirishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ekologik madaniyatni shakllantirish va bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarini ishtiroki masalasi hamisha faylasuf olimlar diqqatida bo‘lib kelgan.

Ushbu masalada ham yurt olimlarimizdan Bu borada mamlakatimiz olimlaridan A.Xamroyev[2] ijtimoiy davlat va undagi ekologik barqarorlik, N.Hakimov[3] inson ekologiyasi va ekologik barqarorlik, ekologik madaniyat masalalarini tahlil etgan bo‘lsa, xorijiy olim Mariya Gyopel[4] izlanishlarida Ona tabiatni bizdan keying holati va ekologik muammolarni oldini olishga oid masalalarni o‘rgangan.

Tadqiqotni olib borishda mantiqiy-tizimli yondashuv, qiyosiylik, ilmiy manbalarni tahliliy tadqiq etish usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ekologik madaniyat shaxsning umri davomida o‘rgangan bilimlari, tabiatga bo‘lgan munosabati va ekologik amaliy faoliyatining sintezidir. Ekologik madaniyat fuqarolik jamiyatida. Nodavlat notijorat tashkilotlari(NTT), o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, Ommaviy axborot vositalari orqali transformatsiya qilinadi.

NTTlarning bu jarayoda hissasi katta bo‘lib, aholi manfaatlarini himoya qilish va ekologik monitoringni amalga oshiradi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasining 27-dekabr 2013-yilda qabul qilingan “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonunida “jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga doir jamoatchilik fikrini o‘rganishni, jamoatchilik ekologik ekspertizasini o‘tkazish, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik ta’lim va tarbiyani



rivojlantirishga doir ishda ko‘maklashish”[5] va boshqa bir qator huquqlarga ega ekanligi belgilab qo‘yilgan. Mamlakatimizda bir qancha nodavlat, notijorat tashkilotlari mavjud bo‘lib, “O‘zbekiston ekologik harakati”, “Mehr va Oqibat”, “Ekolog”, “Ekoland”, “Ekomaktab”, “Jonli tabiat”, “Logos”, “Suvchi” tashkilotlari shular jumlasidandir.

Jamiyatda ekologik madaniyatni yuksaltirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini ham o‘rni beqiyos. Ularning: “atrof muhitni muhofaza qilishni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari bo‘yicha qarorlar tayyorlashda va qabul qilishda, shuningdek davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi, tegishli hududda jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshiradi, atrof muhit holatini va atrof muhitning ifloslanishiga hamda tabiiy resurslardan nooqilona foydalanishga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni kuzatib borishni amalga oshiradi, ekologik nazorat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi”[5] va shu kabi bir qator huquqlari qonuniy belgilab qo‘yilgan. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini orasida mahalla instituti tabiatni muhofaza etishda alohida o‘ringa ega. Xususan, mamlakatning o‘ziga xos ijtimoiy tuzulmasi sifatida jamiyatda ekologik tadbirlarni uyushqoqlik bilan o‘tkazishda asosiy bo‘g‘in sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Jumladan, “Yashil makon” umummilliy loyahasini amalga oshirishda, umumxalq hasharlarini o‘tkazishda uning roli yaqqol bilinadi.

Ommaviy axborot vositalarini ham tabiatni asrash, ekologik madaniyatni shakllantirishda ishtiroki juda muhim. Ayniqsa ekologik axborotlarni ishonchli, aniq ochiqlash va tarqatishda, shuningdek, ekologik huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlikni targ‘ib etib, jamoatchilik fikrini shakllantirishda OAVning o‘rni yaqqol namoyon bo‘ladi.

Jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirishda eng asosiy to‘siqlardan biri “iste‘molchilik dunyoqarashi”ning mavjudligidir. Fuqarolik jamiyati a‘zolari dunyoqarashida “ekologik altruizm”ni shakllantirish lozim. Bu nima degani? Bu so‘z ikki so‘zning birikuvidan (ekologiya+altruizm) hosil bo‘lgan bo‘lib, “ekologiya (yun. oikos joy, uy, makon va logos-ta‘limot, tushuncha) – organizmlar va ular bilan atrof-muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganuvchi fan”[6:310]. “Altruizm (lot. alter. fransuzcha altruism – boshqa) – axloqiy tushuncha. Egoizmga qarama-qarshi axloqiy tamoyil bo‘lib, shaxsiy manfaatlaridan kechib, o‘z g‘alar manfaati, baxt-saodati yo‘lida beg‘araz xizmat qilish degan ma‘noni anglatadi”[6:15]. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ekologik altruizm – bu insonning “individual”-faqat o‘zimga degan dunyoqarashdan voz kechib, o‘z shaxsiy manfaatlarini chetga surib, kelajak avlodlar manfaatini o‘ylagan holda tabiatni asrash, g‘amxo‘rlik qilish demakdir. Agar jamiyat ushbu tushunchani mohiyatini anglab yetsa va amal qilsa insoniyat kelajagi bexavotir bo‘ladi. Chunki, bunday qarashlarga ega insonlar ixtiyoriy tarzda o‘z ehtiyojlarini jilovlab, musaffo havo, toza atrof-muhit va sog‘lom tabiatni kelajak uchun qoldiradi. Albatta inson yashashi uchun tabiat resurslaridan foydalanishi kerak. Ammo bu degani cheksiz, nooqilona degani emas. Hamisha ratsional yondashish lozim. Isrof bo‘lishni oldini olish kerak. Fuqarolik jamiyati uchun ekologik altruizm juda muhim. Chunki, bunday jamiyat faqat qonunlar majburlav kuchi bilan ishlaymaydi. Bunday jamiyat a‘zolari ixtiyoriy, anglagan holda harakatlanadilar. Oddiy daraxt ekib, bog‘ barpo etishni qonun kuchi bilan, majburlab amalga oshirib bo‘lmaydi. Qonunlar daraxtlarni kesishni oldini olishi mumkindir, lekin ekishni ta‘minlay olmaydi. Yuqorida aytganimizdek ekologik altruizm rivojlangan jamiyatdagina odamlar hech qanday nazorat bo‘lmasa ham, hatto bugun ekan daraxtini yillar o‘tib mevasi va soyasidan bahra ololmasligi mumkinligini bilsa ham nabiralari, kelajak uchun ekadi. Tabiatni asrab-avaylaydi. Buning uchun albatta ekologik ta‘lim-tarbiyani kuchaytirish, uzviylikni ta‘minlash lozim.

XULOSA



Xulosa qilib aytish mumkinki, kuchli fuqarolik jamiyati shakllangan joydagina ekologik barqarorlik bo'lib, tabiat xavsizligi ta'minlanishi mumkin. Ekologik madaniyatni yuksaltirishda mahalla, NTT va OAVni o'rni e'tirof etgan holda ular faoliyatini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Falsafa Qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". "Sharq" nashriyot-matbaaaksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – Toshkent,2004. – 456-bet.
2. Xamroyev A.Ijtimoiy davlat va ekologik barqarorlik. - Toshkent: Iqtisod-siyosat, 2021.
3. Hakimov N.X. "Inson ekologiyasi": Monografiya. T.: "IQTISODIYOT", 2021. – B.37.
4. Мария Гёпель. Мир после нас. Как не дать планете погибнуть. м.: Альпина, 2021.
5. Ekologik nazorat to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.12.2013 yildagi O'RQ-363-son. <https://lex.uz/en/docs/-2304953?ONDATE=07.02.2024%2000>
6. Falsafa ensiklopedik lug'at. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti". – Toshent:2010. – 310-bet.
7. BAYESHANOV, A. (2026). O 'ZBEKISTONDAGI EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA BIOSENTRIZM VA EKOLOGIK VIJDON OMILINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI. «ACTA NUUZ», 1(1.3), 50-52.
8. Bayeshanov, A. (2025). INSON EKOLOGIYASI: TABIAT VA INSON UYGUNLIGI. *Академические исследования в современной науке*, 4(36), 35-38.